

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test  
markazining Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash  
boshqarmasining  
NIZOMI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda - Boshqarma) o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PP-1875-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 fevraldagi 130-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to‘g‘risida Nizom» asosida ishlab chiqilgan mazkur Nizomga binoan tashkil etadi.

2. Boshqarma Davlat test markazi (Markaz) tarkibida bo‘lib, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ta’limga oid qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi.

**2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari**

3. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

xalqaro e’tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

o‘rganuvchilarni chet tili bilish va egallash darajasini aniqlashni to‘lov asosida test o‘tkazish;

davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berish;

chet tillari o‘qituvchilariga oylik ustama belgilash uchun test sinovini o‘tkazish.

4. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqadi;

chet tillarni bilish darajasini ilmiy asoslangan uslubda o'lchashga qaratilgan baholash vositalari bazasini shakllantiradi;

chet tillarni bilish darajasini o'lchashga qaratilgan baholash vositalarini aprobatsiyadan o'tkazadi, aprobatsiya natijalarini statistik va ekspert tahlillaridan o'tkazadi hamda ushbu tahlillar natijalariga ko'ra baholash vositalarini muntazam ravishda takomillashtirib boradi;

chet tillarni o'rganish darajasini baholash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqadi;

faolitiga oid masalalar bo'yicha ilg'or va xalqaro tajribalarni o'rganadi;

o'rganuvchilarning chet tilini bilish darajasini aniqlashga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

o'rganuvchilarning mustaqil ravishda chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun testga tayyorlanishga zarur ma'lumotlarni tayyorlaydi va Internet tarmog'iga joylashtiradi;

Markazning byudjetdan tashqari daromadlari hisobidan ekspertlarni va imtihon oluvchilarni jalb etadi;

Boshqarma faoliyatiga oid bo'lgan Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlarining ijrosini ta'minlaydi;

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Respublika til o'rgatish markazi, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa chet tili mutaxassislarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari hamda turli halqaro tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi;

ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talabalarining chet tillarni o'rganish darajasini O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlariga va davlat talablariga muvofiqligini tahlil qiladi;

masofaviy test sinovini o'tkazish bo'yicha dasturiy ta'minotini ishlab chiqadi va joriy etadi;

chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun test sinovlarini o'tkazadi;

chet tilini bilish va egallash darajasini tasdiqlaydigan davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatlarini beradi;

chet tillari bo'yicha davlat ta'lim standartlarini, ular asosida ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlarini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun ekspertizadan o'tkazadi;

chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashga qaratilgan sinovlar natijalari bo'yicha taxliliy ma'lumotlarni tayyorlaydi.

### **3-bob. Boshqarmaning huquqlari va javobgarligi**

5. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Markaz rahbariyati bilan kelishilgan holda vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimliklar va ta'lim muassasalaridan zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

olimlar, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etish,

maqsadli va vaqtinchalik ilmiy-tadqiqot va ijodiy guruhlarini tashkil etish bo'yicha Markazga takliflar kiritish;

chet tillarni bilish darajasini baholash masalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va yig'ilishlar ishida ishtirok etish.

6. Boshqarma chet tillarni bilish darajasini xolisona baholashda ilmiy asoslangan pedagogik o'lchov vositalarini qo'llashga, davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berishni tashkil etilishiga javobgardir.

7. Boshqarma vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarish majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar Markaz vakolati doirasida qabul qilishida takliflar kiritadi;

8. Boshqarma faoliyati doirasida boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birga qo'shma qarorlar, buyruqlar va boshqa hujjatlar loyihasini tayyorlaydi.

### **4-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish**

9. Boshqarma ishiga rahbarlik qilish boshqarma boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Boshqarma boshlig'i Markaz direktorining buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi.

10. Boshqarma tarkibiga ikkita bo'lim kiradi: Chet tillarni bilish darajasining pedagogik o'lchovlarini rivojlantirish bo'limi, Test sinovlarini tashkil

etish va malaka sertifikatlarini berish bo'limi. Bo'lim faoliyatiga rahbarlik Markaz direktori tomonidan tayinlangan tegishli bo'lim boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

11. Boshqarma faoliyatini qonunchilik doirasida tashkil etish, mazkur Nizomda belgilangan vazifalarni hal etish boshqarma boshlig'i vakolatiga kiradi. Boshqarmaga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarilishi uchun boshqarma boshlig'i shaxsan javobgardir.

12. Boshqarma boshlig'i boshqarma faoliyatiga oid me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishga bevosita rahbarlik qiladi hamda muhokama uchun Markazning Ilmiy-metodik kengashi yig'ilishlariga kiritadi.

13. Boshqarma Markazning barcha bo'limlari bilan hamkorlikda ish olib boradi, umumiy masalalarda kelishilgan holda me'yoriy hujjatlarni tayyorlaydi.

14. Boshqarma xodimlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan sifatli bajarish, o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanish, qonunchilik va davlat manfaatlariga to'la amal qilish uchun javobgardirlar.

#### **5-bob. Yakunlovchi qoida**

15. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.